

MOBIL UZLUKSIZ TA'MINLASH MANBALARI TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.

Mirzayev Sardorbek Zafarbek o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotehnologiyalar institute “Elektr energiya va nasos stansiyalaridan foydalanish” Kafedrasi stajior o'qituvchisi

Магистр Азимов Араббой Муфтохиддин ўғли, Abobakirov Rustambek Abdumannob o'g'li, Axmadjonov Raximjon Raxmonali o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotehnologiyalar institute “Qishloq xo'jaligi mehanizatsiyalashtirish” yo'nalishi 2-bosqich 2-47 guruh talabasi

A R T I C L E I N F O.

Annotatsiya

Mobil uzluksiz yoki rezerv ta'minlash manbasi tushunchasi ostida, asosiy ta'minot manbasiga doim ulanib turuvchi va asosiy tarmoqda energiya yo'qolib qolish (tarmoqda avariylar sodir bo'lganda) hollarida rezerv ta'minot manbaiga avtomatik yoki qo'l bilan o'tuvchi, yig'ilib sozlanuvchi, joylashishini ko'chirish imkonи mavjud tizim tushuniladi. Uzluksiz ta'minotda ta'minot manbasi bir vaqtning o'zida asosiy va rezerv funktsiyalarni bajaradi, bunda asosiy manbada elektr uzilishi sodir bo'lganda, u avtomatik ravishda rezerv xolatga o'tadi (odatda akkumulyatorlardan).

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Elektr tarmoq standart ko'rsatkichlari va mobil uzluksiz energiya manbasini zarurligi va
qo'llanilishi.

Uzluksiz ta'minotning mobil manbalari, foydalanuvchining elektr qurilmasini tarmoqdagi har qanday buzilishlardan saqlash, tarmoqdagи kuchlanishni uzillishi yoki ko'rsatkichlardan og'ishi, shuningdek tarmoqdan keluvchi yuqori chastotali shovqinlar va yuqori chastotali impulslarni bosish uchun foydalaniladi.

Elektr tarmoqlar uchun GOST bilan o'rnatilgan standart ko'rsatkichlar bo'lib quyidagi xarakteristikalar hisoblanadi:

- iste'mol kuchlanishi — 220 V \pm 10% ;
- chastota — 50 \pm 1 Gts;
- kuchlanish formasini nochiziqli buzilishlar koeffitsienti — uzoq vaqt mobaynida 8% dan oz va 12% — qisqa vaqtda;

Quyida elektr ta'minotda ko'p uchraydigan muammolar ko'rsatib o'tilgan. Quyidagilar bilan biz tez-

tez to'qnashib turamiz:

- Tarmoqdagi kuchlanishni to'liq yo'qolishi (elektr energiya uzatish tizimlarida buzilishlar kelib chiqishi natijasida tarmoqdagi kuchlanishni 40 sekundan ko'proq vaqtga uzilishi).
 - Kuchlanishni pasayib ketishi (tarmoqdagi kuchlanishni nominal qiymatdan 80% ga pasayib ketishi bir davrli vaqt mobaynida (1/50 sekund), bu kuchli yuklamalarni ularishi oqibatida yoritish lampalarini yorug'ligini pasayishida kuzatiladi) va kuchlanishni ortib ketishi (tarmoqdagi kuchlanishni nominal qiymatdan 110% ga ko'tarilib ketishi bir davrli vaqt mobaynida (1/50 sekund) qisqa vaqtli oshishi; katta yuklamani tarmoqdan uzilganda kuzatiladigan hodisa.
 - Yuqori chastotali shovqin — radiochastotali shovqinlar, kuchli yuqori chastotali qurilmalarni, kommunikatsion qurilmalarni ishlash natijalari;
 - Chastotani ruhsat etilgan qiymatlar chegarasidan og'ishi;
- Yuqori voltli ko'rsatkichlar — davomiyligi 10 ms kattaligi 6000V gacha bo'lgan kuchlanishni qisqa vaqtli impulslari, statik elektr natijasida, chaqmoqlar vaqtida, uzib ulagichlarni quyishida, qisqa tutashuv vaqtida namoyon bo'ladi
- Chastotani oshishi — chastotani nominaldan (50 Gts) 3 va undan katta Gts ga o'zgarishi, elektr energiya manbasi ishini nostabilligida namoyon bo'ladi.

Bu omillarning barchasi yuqori sezgirli elektron qurilmalarni ishdan chiqishiga, ko'p hollarda ma'lumotlarni yo'qolishlariga sabab bo'lishi mumkin. Lekin insoniyat bu sohada himoyalanish vositalaridan: kuchlanishni oshishi va kamayib ketishida, tarmoq kuchlanish filtrlari; tarmoq tizimida kuchlanishni umuman yo'qolish xollarida elektr energiya berilishini ta'minlovchi dizel generatorlar, shaxsiy kompyuterlar, serverlar, mini ATSlarni asosiy himoya vositasi - uzlusiz ta'minot manbai. Shunday qilib, uzlusiz ta'minot manbai- uzlusiz yuqori sifatli elektr energiya beruvchi qurilma hisoblanadi.

Generator uzlusiz ta'minot manbai hisoblanmaydi, sababi elektr energiya uzatilishida uzilish sodir bo'lgan vaqtida, zahira generatori shu vaqting o'zida ishga tushmaydi. Elektr energiya uzatilishidagi uzilish sezilarli yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Uzlusiz ta'minot manbai nafaqat elektr uzatilishidagi uzilishlardan himoya qiladi, balki, sezgirligi yuqori qurilmalar uchun bir tekis, uzilishlarsiz energiya bilan ta'minlash uchun uzlusiz elektr tarmoqdagi turli shovqinlarni, kuchlanishni sakrab turishini filtrlashi mumkin. (1.1 rasm.)



Rasm 1.1. Tarmoqdagi nosozliklardan UTMni himoyalash sxemasini

Mobil uzlusiz ta'minot manbalari quyidagi asosiy bloklardan tashkil topgan (1.2. rasm);

- ma'lum chiqish quvvatiga ega invertor bloki;
- katta sig'imga ega akkumulyator batareyalar bloki;
- tarmoq bilan kommutatsiyalananuvchi rele (invertorga o'rnatilgan bo'lishi mumkin);
- ma'lum tok sathiga ega zaryadlash qurilmasi (ZQ invertorga o'rnatilgan bo'lishi mumkin).



Rasm 1.2. MUTM tashkil etuvchi qismlar.

O'zgarmas tokni o'zgaruvchan tokga aylantiruvchi va avtonom yuklamaga ishlovchi o'zgartkichlar avtonom invertorlar deyiladi. Ularning chiqishlaridagi kuchlanish fazalari soniga qarab: bir, uch, ko'p fazali invertorlarga bo'linadi. Sxemalarinish qurilishiga qarab : noli chikarilgan, ko'priksimon va yarimko'priksimonlarga bo'linadi.


Avtonom invertorlarda sodir bo'layotgan elektromagnit jarayonlarga qarab: tok invertori, rezonans invertori, kuchlanish invertorlarga bo'linadi.

Tok invertorlari sxemasi kirishiga katta induktivlikga ega bo'lgan drossel ulangan bo'lishi shart. Bu holda kommutatsiyada ishtirok etayotgan kondensator nodavriy (aperiodik) zaryadlanadi, kirish toki ideal silliqlangan va uzlusiz bo'ladi. Ya'ni bunda manba tok generatori rejimida ishlaydi.

Tok invertorlaridagi kommutatsiyalovchi kondensatorni yuklamaga nisbatan ulanishiga qarab: ketma-ket, parallel va ketma-ket parallel invertorlarga bo'linadi.


Rezonans invertorlarida yuklama tarkibidagi katta induktivlik bilan boshqa reaktiv elementlar bilan

birgalikda tebranish konturini hosil qiladi va kuchlanish rezonansi vujudga keladi. Bunday cxemalapdag'i tiristorlar anod toklarini qiymati nolga yetganidan so'ng yopiladi. Rezonans invertorlarini ta'minlaydigan manba tok generatori yoki kuchlanish generatori rejimlarida ishlashi mumkin. Agar rezonans invertori ta'minlaydigan manba, kuchlanish generatori sifatida ishlayotgan bo'lsa, ochiq kirishli rezonans invertori deyiladi. Agap manba tok generatori sifatida ishlayotgan bo'lsa, yopiq kirishli rezonans generatori deyiladi. Bunday invertorlar ham yuqorida keltirilgani kabi: ketma-ket, parallel, ketma-ket parallellarga bo'linadi. Kuchlanish invertorlarida ta'minlovchi manba kuchlanish generatori sifatida ishlaydi va uning ichki qarshiligi kichik bo'lishi kerak. Agar uning ichki qarshiligi katta bo'lsa, u holda invertor kirishiga katta sig'imli kondensator ulanadi. Bir fazali parallel tok invertori. Sxemadagi tiristorlar juft-juft bo'lib ishlaydilar, ya'ni V1, V2, va V3, V4 (1.3-rasm). Masalan, V1 va V2 ga ochuvchi impulslar berilishi bilan ular ochiladilar va quyidagi zanjirdan tok o'tadi: kirish Ud kuchlanishining musbat potentsiali, Ld induktivlik, tiristor V1, yuklama Zw, tiristor V2, kirish Ud kuchlanishining manfiy potentsiali. Yuqorida keltirilgan tiristorlarning ochilish vaqtiga nisbatan 180° ellrad.dan so'ng V3 va V4 tiristorlarga ochuvchi impuls beriladi va quyidagi zanjirdan tok o'tadi: kirish Ud kuchlanishining musbat potentsiali, L induktivlik, tiristor V3, yuklama Z1O , tirislor V4, kirish Ud kuchlanishining manfiy potentsiapi. Bunday ko'rindaniki, bir qaytarilish davri ichida yuklamadan ikki marta qarama-qarshi yo'nalgan o'zgaruvchan tok o'tar ekan. Sxema elementlaridagi tok va kuchlanishlarning shakllari mos holda diagrammalarda keltirilgan (1.7-rasm).




Rasm. 1.3.

Sxemani hisoblash uchun quyidagi ekvivalent sxemadan foydalaniladi:



Rasm 1.4. Filtrni sodda

Bir fazali noli chiqarilgan uzuvchi diodli parallel tok invertorining printsipial sxemasi 1.5-rasmida keltirilgan va uning ishlash diagrammalari esa 1.6- rasmida keltirilgan




Rasm 1.5 Tok invertorining printsibial sxeması

V1 tiristorga ochuvchi impuls kelgan vaqtidan boshlab quyidagi zanjir orqali tok o'tadi: Ud kuchlanishning musbat potentsiali, Ld induktivlik, so, birlamchi chulg'am, D1, uzuvchi diod, S kondensator, V2 tiristor, Ud kuchlanishnish manfiy potentsiali. (1.5-rasmga) 180 gradusdan so'ng V2 tiristorga ochuvchi impuls beriladi va u ochilib quyidagi zanjirdan tok o'tadi: Ud kuchlanishning musbat potentsiali, Ld induktivlik, oz, birlamchi chulg'am, D2 uzuvchi diod, S kondensator, V2 tiristor, Ud kuchlanishning manfiy potentsiali. [12]


Birlamchi chulg'amlardan o'tayotgan tok hisobiga ikkilamchi chulg'ama o'zgaruvchan E.Yu.K. hosil bo'ladi. Bu esa yuklamadan o'zgaruvchan tok o'tishiga sabab bo'ladi. R-L yuklama ishlayotgan invertorda konturdagi kondensator toki 1S noldan o'tgandan so'ng, kondensatorni razryadlanishi uchun mumkin bo'lgan zanjir D1, D2 diodlar yopiq bo'ladi.

Demak, shu vaqtidan boshlab kondensatordagi kuchlanish qiymati o'zgarmay turadi. Bu hol esa past chastotada ishlayotgan invertordagi kondensatorni kam sig'imligini ishlatish mumkinligiga sabab bo'ladi. (D1 va D2 diodlar yo'q bo'lgan holdagiga nisbatan) D1, D2 diodlar ishlatilishining yana bir yaxshi xususiyatlardan biri shuki, bunda teniul vaqtin nisbatan kattalashadi. Buni UB2 kuchlanish diagrammasidan ko'rish mumkin. Demak, ishlatilishi mumkin bo'lgan tiristorga nisbatan talab kamayadi. Sxemadagi (1.7-rasm) tiristorlarning ishlash tartibi uch fazali ko'priksimon to'g'rilaqich tiristorlari ishlash tartibiga o'xshaydi. SHuning uchun ham tiristorlarni ochish uchun juft ingichka va biri ikkinchisidan 60 el.fad.ga siljigan yoki bittasi 60 el.graddan kengrok bo'lgan boshqarish impulsulari yordamida ochiladi. [13]

Sxemaning ishlashi bir fazali parallel tok invertoi kabitdir. Ventillararo kommutatsiya bo'lgani uchun bir guruh tarkibida bo'lgach tiristor ochilganida shu guruxdagi ochiq tiristorlar kondensatorning razryad toki o'tishi hisobiga yopiladi Masalan: V1, V4 bilan ishlayotgan bo'lsa, S1 kondensator rasmida ko'rsatilganidek qutblarga ega bo'ladi. SHu guruxdagi V3tiristor ochilishi bilan S1 kondensatorda yig'ilgan energiya hisobiga razryad toki V1, V3 tiristorlar orqali o'tishi natijasida V1 tiristor yopiladi.



Rasm 1.7. Tiristorlarning ishlash tartibi



Rasm 1.8. Tiristorlarning ishlash diagrammalari.

Tarmoq rejimi - yuklamani tarmoq energiyasidan ta'minot rejimi. Ruhsat etilgan og'ish chegaralarida tarmoq quchlanishini va yuklamani mavjudligida maksimal ruhsat etilgandan oshmagan sharoitda, MUTM tarmoq rejimida ishlaydi. Bu rejimda quyidagilar amalga oshadi:

- impulsli va yuqori chastotali tarmoq halaqtitarini filtrlash;
- tarmoqdagi o'zgaruvchan tok energiyasini doimiy tok energiyasiga to'g'rilaqich va quvvat koefitsienti korreksiysi sxemasi yordamida o'zgartirish;

Mobil uzluksiz ta'minlash manbalarining ishchi rejimlari.


Tarmoq holati va yuklama kattaligiga bog'liq holda, MUTM rejimlarda ishlashlari mumkin: tarmoqli, avtonom, Baypas va boshqalar.

- doimiy tok energiyasini invertor yordamida stabil parametrli o'zgaruvchan tok energiyasiga o'zgartirish;

- akkumulyator batareyani zaryadlash qurilmasi yordamida zaryadlash.

Avtomotiv rejimi - yuklamani akkumulyator batareya energiyasi bilan ta'minlash rejimi. Tarmoq kuchlanishi parametrlarini ruhsat etilgan chegaralardan og'ishida yoki to'liq yo'qolib qolish holatlarda MUTM akkumulyator batareya energiyasi hisobiga balandlovchi o'zgartirgich va invertor orqali avtomotiv ta'minot rejimiga o'tadi. Tarmoqda kuchlanish qayta tiklanganda tarmoq rejimiga o'tadi. [14]

Baypas rejimi - yuklamani to'g'ridan-to'g'ri tarmoqdan ta'minlanishi. Agar tarmoq rejimida MUTM o'ta yuklamaga yoki qizishga uchrasa, shuningdek MUTM elementlaridan biri ishdan chiqqan hollarda, yuklama avtomatik ravishda invertor chiqishidan to'g'ridan - to'g'ri tarmoqqa ulanadi. Baypasga(o'ta yuklama yoki qizish) o'tish sabbalari bartaraf etilgandan so'ng, MUTM avtomatik ravishda normal tarmoq rejimiga qaytadi. Baypas rejimida yuklama tarmoqning sifatsiz kuchlanishidan himoyalanmagan.



Rasm. 1.9. Chiziqli - interaktiv MUTM sxemasi.

Batareya zaryadi tarmoqda kuchlanish mavjudligida amalga oshadi. Zaryadlash qurilmasi, invertor ulanganligiga yoki Baypas rejimi mavjudligidan qa'tiy nazar akkumulyator batareya zaryad olishini ta'minlaydi. MUTM avtomatik qayta ulanishi rejimi, batareyani o'ta to'yinishidan himoyalash maqsadida ichki signal bilan avtomatik ravishda o'chgan bo'lsa, tarmoqda kuchlanish tiklanadi, agar bundan oldin MUTM avtomotiv rejimda ishlagan bo'lsa. Kirish kuchlanishi tiklangandan so'ng MUTM avtomatik ravishda yonadi va tarmoq rejimiga o'tadi.

Tarmoq rejimi - yuklamani tarmoq energiyasidan ta'minot rejimi. Ruhsat etilgan og'ish chegaralarida tarmoq quchlanishini va yuklamani mavjudligida maksimal ruhsat etilgandan oshmag'an sharoitda, MUTM tarmoq rejimida ishlaydi. Bu rejimda quyidagilar amalga oshadi:

- impulsli va yuqori chastotali tarmoq halaqitlarini filbirlash;
- tarmoqdagagi o'zgaruvchan tok energiyasini doimiy tok energiyasiga to'g'rilaqich va quvvat koeffitsienti korrektsiyasi sxemasi yordamida o'zgartirish;
- doimiy tok energiyasini invertor yordamida stabil parametrli o'zgaruvchan tok energiyasiga o'zgartirish;
- akkumulyator batareyani zaryadlash qurilmasi yordamida zaryadlash.

Avtonom rejim - yuklamani akkumulyator batareya energiyasi bilan ta'minlash rejimi.

Mobil uzlusiz rezerv ta'minlash manbasi tushunchasi ostida, asosiy ta'minot manbasiga doim ulanib turuvchi va asosiy tarmoqda energiya yo'qolib qolish (tarmoqda avariylar sodir bo'lganda) hollarida rezerv ta'minot manbaiga avtomatik yoki qo'l bilan o'tuvchi, yig'ilib sozlanuvchi, joylashishini ko'chirish imkonи mavjud tizim tushuniladi. Uzlusiz ta'minotda ta'minot manbasi bir vaqtning o'zida asosiy va rezerv funktsiyalarni bajaradi, bunda asosiy manbada elektr uzilishi sodir bo'lganda, u avtomatik ravishda rezerv xolatga o'tadi (odatda akkumulyatorlardan).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Istochniki vtorichnogo elektropitanija / V.A. Golovatskiy, G.N. Gul'skovich, Yu.I. Konev i dr.; Pod red. Yu.I. Koneva –M.: Radio i svyazъ, 2000. –420 s.
2. Istochniki elektropitanija radioelektronnoy apparaturы: Spravochnik / G.S. Nayvelъt, K.B. Mazelъ, Ch.I. Xusainov i dr.; Pod red. G.S. Nayvelъta. –M.: Radio i svyazъ, 2005. –576 s.
3. Kostikov V.G., Nikitin I.E. Istochniki elektropitanija vysokogo napryajeniya REA. –M.: Radio i svyazъ, 2006. –200 s.